

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**M.T. O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA
INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

SOY GERASIM NIKOLAYEVICH

**TERI XOMASHYOSIDAN NAMLIKNI SIQIB CHIQARUVCHI
MASHINALARNI TAKOMILLASHTIRISH VA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARNING ILMIY VA AMALIY ASOSLARI**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari**

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

**Texnika fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
технических наук**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of science (DSc)
on technical sciences**

Soy Gerasim Nikolayevich

Teri xomashyosidan namlikni siqib chiqaruvchi mashinalarni takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarning ilmiy va amaliy asoslari3

Цой Герасим Николаевич

Научные и прикладные основы совершенствования машин и инновационных технологий удаления влаги из кожевенного полуфабриката.....29

Tsoy Gerasim Nikolaevich

Scientific and applied fundamentals for improving machines and innovative technologies for removing moisture from semi-finished leather products.....55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**M.T. O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA
INSHOOTLAR SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

SOY GERASIM NIKOLAYEVICH

**TERI XOMASHYOSIDAN NAMLIKNI SIQIB CHIQARUVCHI
MASHINALARNI TAKOMILLASHTIRISH VA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARNING ILMIY VA AMALIY ASOSLARI**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va
robototexnika tizimlari**

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.1.DSc/T.589 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik M.T. O‘rozboyev mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttysi.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Baxadirov G‘ayrat Ataxanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shin Illarion Georgiyevich
texnika fanlari doktori, professor

Muxammadiyev Davlat Mustafayevich
texnika fanlari doktori, professor

Ibragimov Farxod Xayrulloevich
texnika fanlari doktori, dotsent


Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 – raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «26» avgust soat 10-00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko‘chasi, 5-uy, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ma’muriy binosi, 2-qavat, 222-xona. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (304 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko‘chasi, 5 uy, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «20» iyul kuni tarqatildi.
(2026 yil «20» iyuldagi 304 raqamli reyestr bayonnomasi).



KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusini dolzarbligi va zarurati. Jahon bozorida teri xomashyosi, tayyor charm va charm mahsulotlariga bo'lgan talab katta. «Dunyo miqyosida yirik va mayda shohli hayvonlarning terisini ishlab chiqarish yillik hajmi 1700 km²»¹ dan ortiqroq ekanligini hisobga olsak, jumladan: Osiyoda yirik shohli mollar 35% (YSHM) va mayda shohli mollar 67% (MSHM), Janubiy Amerikada – 29% YSHM va 4% MSHM, Yevropada – 17% YSHM va 14% MSHM, Rossiyada – 9% YSHM va 2% MSHM, Shimoliy Amerikada – 5% YSHM va 2% MSHA va Afrikada – 3% YSHM va 10% MSHM, bu teri xom ashyosiga qayta ishlov beraishda texnologik jarayonni sifatli amalga oshiradigan mashinalarni amaliyotga joriy etishni taqoza etadi va shu bois unumdorligi yuqori bo'lgan texnologiyalar, yangi istiqbolli ishlanmalarga bo'lgan talab yuzaga keladi.

Butun dunyoda ko'n yarim mahsulotiga ishlov beruvchi yuqori samarador valikli texnologik mashinalarni yaratish bo'yicha yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, teri xomashyosidan namlikni siqib chiqaruvchi mashinalarni takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarning ilmiy va amaliy asoslarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, yarim mahsulotiga ishlov berish jarayonlarida yuqori samaradorlikni ta'minlaydigan texnologik mashinalarni ishlab chiqish, shuningdek, texnologik jarayonning parametrlari va ish rejimlarini takomillashtirishga, yuqori ish sifatini ta'minlash hamda energiya va resurslarni tejash, teri xom ashyo mahsulotlarga dastlabki mexanik ishlov berishda energiya-resurstejamkor texnologik mashinani ishlab chiqish hamda uning texnologik jarayoni, parametrlari asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda ko'n yarim mahsulotlariga ishlov berishda mehnat va energiya sarfini kamaytiradigan va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshiradigan samaradorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida «... import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish orqali 2026 yilgacha charm xomashyosi, tayyor poyabzal va charm-galanterey mahsulotlari hajmi va ishlab chiqarishni ko'paytirish...»² kabi muhim vazifalar qo'yildi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun charm yarim tayyor mahsulotlar va charm buyumlar blankalarini yuqori sifatli qayta ishlashda texnologik talablarni ta'minlaydigan texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilingan mashinalarni yaratish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF–60-son Farmoni va 2021 yil 8 fevraldagi PQ – 4982-son “Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi , 2023 yil 11 oktabrdagi № PQ-331 son “Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport

1. <https://sber.pro/publication/kozhanyi-profitsit-kak-kozhevennaia-otrasl-perezhivaet-pandemiiu>.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Energetika, energiya va resurslarni tejash", "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun yuqori unumdor mashinalar va jihozlar, uskunalar, etalon vositalar, o'lchash va nazorat usullarini yaratish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlarga sharh. Charm materiallarining reologik modelini takomillashtirish, charm materiallarini mexanik qayta ishlash texnologiyasi va mashinalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida, jumladan Britaniya Reologiya Jamiyati (ESR), Germaniya Reologiya Jamiyati (DRG, Germaniya), Avstraliyaning Rossiya Society Society (Moskva, RSS) M.S. nomidagi davlat universiteti. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (RF), Michigan universiteti, Minnesote universiteti, Rochester universiteti (AKIII). Kembrij universiteti, Belfast universiteti (Belorussiya). Britaniya Kolumbiyasi universiteti (Kanada), Magdeburg universiteti (Germaniya), Trencen universiteti (Slovakiya), Lublian universiteti (Sloveniya). Pusan Milliy universiteti (Koreya Respublikasi), Sun Yat-Sen universiteti (Tayvan), Inson universiteti, Changsha universiteti, Yanshan universiteti, Xiamen universiteti, Sheyang universiteti, Vuxan universiteti (Xitoy), N.E. nomidagi Moskva davlat texnika universiteti. Bauman, im. N.Kosigina nomidagi Moskva davlat universiteti, Kostroma davlat texnologiya universiteti (Rossiya Federatsiyasi), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlarning zilzilalarga chidamliligi instituti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti (O'zbekiston) o'zlarining avtomashinalarini qayta ishlash va yarim ko'ncilik mahsulotlarini siqish va qayta ishlash mashinalarini yaratishni takomillashtirishga bag'ishlangan teri sifati va ishlab chiqarishni oshirishni ta'minlovchi nazorat tizimi.

Jahonda charm materiallarini mexanik qayta ishlash sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar doirasida ko'pchilik teri yarim tayyor mahsulotini o'zining ko'p qatlamli o'rami orqali siqib chiqarish orqali namlikni kamaytirish muammolarini hal qilishga qaratilgan. Hozirda V.D. Radnaeva yarim tayyor charm mahsulotlarini quritish jarayonida dermis xususiyatlarining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqladi. I.V. Darda teri xomashyosini qayta ishlash uchun turli texnologik mashinalarga vibrodinamik omillarning ta'sirini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib bordi va yuqori sifatli ishlov berish uchun ishlatiladigan rolikli mashinalarni takomillashtirish parametrlarini asoslash uchun matematik modelni ishlab chiqdi. Ponsubbian ba'zi terini qayta ishlash mashinalarining ishlashini o'rganib chiqdi va Italiya, Germaniya va Xitoyda ishlab chiqarilgan ko'ncilik mashinalarining ishlashini baholadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Valli mashinalarning konstruksiyalarini takomillashtirish va texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha horijda T.Witt (Germaniya), S.Ponsubbiah (Hindiston), L.Olle (Ispaniya), I.V.Darda,

S.P.Polomoshnix, I.R.Tatarchuk, N.G.Vladikin, M.Y.Berseleva, Y.M.Kalashnikova, V.T.Proxorov, D.V.Reva (Rossiya), SH.A.Koyaydarov (Qozog‘iston) shug‘ullanishgan. Teri xom ashyosining fizik-mexanik xossalarini aniqlash va ular asosida mahsulot sifatini yaxshilaydigan texnologik mashinalarni ishlab chiqish bo‘yicha A.Danilkovich (Ukraina), Y.Zhang, S.J.R.Kelly, Katie H.Sizeland (Yangi Zelandiya), I.SH.Abdullin (Rossiya), M.SH.Shardarbek (Qozog‘iston) va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ko‘n yarim mahsulotiga ishlov beruvchi texnologik mashinalarini yaratish, ularning ilmiy asoslarini rivojlantirish bo‘yicha V.D.Radnayeveva, A.V.Ostrovskaya, V.I.Belyayev, V.A.Ivanov, Y.N.Korotchenko, S.V.Yershov, K.Y.Ostrovskiy, L.A.Kaplin, A.V.Podyachev, V.V.Storojev, A.G.Burmistrov (Rossiya) va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamizda ko‘n yarim mahsuloti, charm va poyabzallarga ishlov berish jarayonlari va ko‘n yarim mahsulotiga ishlov beruvchi texnologik mashinalarning parametrlarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlar X.X.Usmanxodjaev, T.Y.Amanov, G.A.Baxadirov, A.A.Rizayev, A.D.Djurayev, K.N.Anarbekov, A.Abdukarimov, SH.R.Xurramov, T.J.Kodirov, F.U.Nigmatova, M.K.Rasulova, S.Maksudov, I.G.Shin va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Ushbu tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan texnologik mashinalar charm sanoati ishlab chiqarishida muayyan darajada ijobiy natijalar bilan qo‘llanilib kelinayotganligiga qaramay, ho‘l teri xom ashyosidan ortiqcha suyuqligini siqib chiqaradigan samaradorligi yuqori bo‘lgan valli mashinani ishlab chiqish va uning ishchi rejimlarini asoslash zarur.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FA-Atex-2018-254 – “Ko‘n yarim mahsulotga mexanik ishlov beruvchi ko‘p operatsiyali mashina ishlab chiqish” (2018-2020), “Terining takomillashtirilgan mexanik modelini ishlab chiqish” (2021) va “Ko‘p operatsiyali valli texnologik mashinaning parametrlarini va konstruksiyasini hisoblash usullarini takomillashtirish” (2022) mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi terining reologik modelini, ko‘n yarim mahsulotidan namlikni yanada samarali chiqarish uchun siqish texnologiyasini va valli siquv mashinasini takomillashtirish va ularni eksperimental asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tolali materialning deformatsiya inertsia koeffitsientini aniqlash va terining reologik modelini nazariy jihatdan takomillashtirish;

azariy jihatdan nam charm yarim tayyor mahsulotidan suyuqlikning g‘ovakli rolikka va tolali rolik qoplamasiga filtrlanishini aniqlash;

ho‘l ko‘n yarim mahsulotidan suyuqlikni g‘ovak valga va valning tolali qoplamasiga filtrlanishini aniqlash;

gorizontal uzatma va preslovchili valli mashinada ko'n yarim mahsulotidan suyuqlikni siqib chiqarish jarayoniga vall juftligining ta'sirini tajriba yo'li bilan tadqiq qilish;

vertikal uzatishda bir va ko'p qatlamli ko'n yarim mahsulotlarini siquvchi vallar orasidan bir vaqtda o'tkazilganda ulardan siqib chiqarilgan suyuqlik miqdorini eksperimental aniqlash va qatlamlar sonini siqib chiqarilgan suyuqlik miqdoriga ta'sirini aniqlash;

ko'n yarim mahsulotidan suyuqlikni siqib chiqarish uchun innovatsion usullarni, siquv mashinalari va presslarning moslamalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida terining reologik modeli va ko'n yarim mahsulotidan valli mashina va press yordamida suyuqlikni siqib chiqarishning texnologik jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti bir va ko'p qatlamli ko'n yarim mahsulotlaridan suyuqlikni siqib chiqarishdagi mexanik ishlov berishning texnologik jarayonini, ishchi rejimlari va valli mashina ko'rsatkichlari, shuningdek ularning o'zgarish qonuniyatlarini tavsiflovchi teri reologiyasi, analitik bog'likliklar va regressiya modellari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematikaviy hisoblash qoidalari, nazariy mexanika qonuniyatlari, statistik tahlil usullari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish usullari hamda mavjud meyoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

charmning reologik parametrlarini, shuningdek, teriga mexanik ishlov berish texnologik mashinalarining ishchi parametrlarini matematik jihatdan aniqroq tavsiflash imkonini beruvchi kapillyar tolali materiallarning deformatsion inertlik koeffitsiyenti parametrlarini aniqlash usuli va qurilmalari ishlab chiqilgan;

charm -yarim tayyor mahsulotini ishlov berish zonasiga uzatish tezligini boshqarish orqali turli qalinlikdagi ishlov beriladigan charmlar diapazonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradigan, ishlov berish tezligi avtomatik boshqariladigan valli mashina ishlab chiqilgan;

plitkali presslar yordamida namlikni yo'qotish jarayonini o'rtacha 15 foizga oshiradigan charm yarim tayyor mahsulotlari orasidagi namlikni chiqarivchi materialning ta'siri asoslangan;

charmning reologik parametrlarini aniqroq tavsiflash imkonini berib, bu esa o'z navbatida teriga mexanik ishlov berish, texnologik mashinalarining ishchi parametrlarini hisoblashning muhandislik usullari ishlab chiqish imkonini beruvchi deformatsion inertlik koeffitsiyenti ko'rinishidagi reologik parametr orqali ifodalanadigan charm yarim tayyor mahsulotining takomillashtirilgan reologik modeli tenglamasi keltirib chiqarilgan;

turli qoplamali siqish vallari juftliklari, siqish bosimi va o'tkazish tezligining charm yarim tayyor mahsulotidan siqib chiqarigan namlik miqdoriga ta'siri aniqlangan;

qatlamlari orasiga parametrlari charm yarim tayyor mahsulotidan namlikni siqib chiqarishda mashina unumdorligini ikki martagacha oshirish imkonini beradigan namlikni chiqaruvchi LASH materiallari o'rnatilgan ko'p qatlamli charm yarim tayyor mahsulotlari uchun chiqarilgan namlik miqdorining siqish vallarining bosimiga va o'tkazish tezligiga bog'liqligining matematik modellari olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

vall juftligining yuqori siquvchi valli BM markali sukno bilan qoplangan, pastki siquv valli esa g'adir-budir, metall-keramikali bilan qoplangan ishchi qismga ega bo'lganida ko'n yarim mahsulotidan suyuqlikni eng samarali siqilishi aniqlangan;

vertikal uzatmali tayanch plitada bir necha qatlamli ko'n yarim mahsulotining ortiqcha suyuqligini bir vaqtda siqib chiqarishning samaradorligi yuqori bo'lgan texnologik jarayoni va shu valli stendning konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

bir va bir necha qatlamli ko'n yarim mahsulotlaridan siqib chiqarilgan suyuqlik miqdorini aniqlashning regressiya tenglamasi olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi deformatsiya inersiyasining takomillashtirilgan reologik koeffitsiyenti, terining takomillashtirilgan reologik modeli, suyuqlikni filtrlash formulasi, ko'n yarim mahsulotidan suyuqlikni samarali siqib chiqarish va bir va bir necha qatlamli ko'n yarim mahsulotlaridan siqib chiqarilgan suyuqlik miqdorini aniqlashning regressiya tenglamasi olinganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati materialning deformatsiya inersiyasining reologik koeffitsiyenti, terining takomillashtirilgan reologik modeli, shuningdek, eksperimental olingan regressiya tenglamalari va ularning analitik bog'liqliklarini shu kabi texnologik jarayonlarni tadqiq etishda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati valli mashinalarda bir necha qatlamli ko'n yarim mahsulotlaridan suyuqlikni mexanik siqib chiqarish hisobiga texnologik jarayonining unumdorligini oshirish va suyuqligi chiqarilayotgan material paketining qalinligiga va presslashda terini chiqish maydonini oshirishga bog'liq holda siqish tezligini regulirovka qilish konstruksiyasini takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Ko'n yarim mahsulotlarini siqish va presslash jarayonini takomillashtirish, shuningdek, suyuqlikni siqib chiqaruvchi valli mashinalar konstruksiyalarini yaxshilash bo'yicha muammolarni o'rganish asosida:

deformatsiya inersiyasining reologik parametrini aniqlash usuliga O'zR Adliya Vazirligi qoshidagi intellektual Mulk Agentligidan ixtiroga patent olingan (IAP №05761, 2019 y.);

ko'n yarim mahsulotlaridan suyuqlikni siqib chiqarish usuli va qurilmalariga O'zR Adliya Vazirligi qoshidagi intellektual Mulk Makazining ixtiro va foydali modelga patentlar olingan (№IAP 04451, 2011g.; №FAP 00732, 2012 y.; №IAP 04458, 2012 y.; №FAP 01735, 2021 y.; №FAP 01763, 2022 y.; №IAP 06957, 2022 y.; №IAP 06958, 2022 y.; №IAP 07074, 2022 y.);

teri xomashyosidan namlikni siqib chiqaruvchi mashinalarni takomillashtirish

va innovatsion texnologiyalari Fargʻona viloyati Qoʻqon shahridagi “Premium Leather” MCHJ va “GOLD LEATHER EXPORT IMPORT” MChJ korxonalarida joriy etilgan. (“Oʻzcharmsanoat” uyushmasining 2025-yil 24 - dekabrda 01-07/3471-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, yarim tayyor mahsulotlardan namlikni mexanik ravishda olib tashlash bilan 2 barobar va undan yuqori mahsuldorlik bilan valli mashinani ishlab chiqish imkoniyati paydo boʻldi va egallab olingan ishlab chiqarish maydonini 2 barobar kamaytirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, Shulardan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 5 ta maqola, horijiy jurnallarda 7 ta maqola, shulardan 6 tasi indeksatsiyalanuvchi Scopus jurnallarida nashr etilgan, ixtiroga 6 ta patent va foydali modelga 3 ta patent hamda koʻn yarim mahsulotidan suyuqlikni siqib chiqarishni hisoblash EHM dasturiga 1 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 193 betni tashkil qiladi.






DISSERTATSIYANI ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusini dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Muammo va tadqiqot vazifalarining hozirgi holati”** deb nomlangan birinchi bobida koʻn yarim mahsulotidan suyuqlikni siqib chiqarish boʻyicha xorijiy va mahalliy adabiyot manbalarining sharhi va tahlili keltirilgan. Koʻn yarim mahsulotining fizik-mexanik va geometrik xususiyatlarini siqish jarayoniga taʼsiri tadqiq qilingan. koʻn yarim mahsulotidan suyuqlikni siqib chiqaruvchi xorijiy siquv mashinalarini ekspluatatsiya qilish tajribasi oʻrganilgan va ularning suyuqlikni siqish sifatining pastligi, mashinaning ish unumdorligi yetarli darajada yuqori emasligi, valli mashinalarning siquvchi uzellari resurslarining kamligi bilan ifodalangan kamchiliklari aniqlangan. Shuningdek, charmning mavjud reologik modellari tahlil qilinib, reologiyada maʼlum boʻlgan ideallashtirilgan materiallarning uchta oraliq modellari tavsiflanadi: ideal-elastik jism (Guk); ideal-qovushqoq suyuqlik (Nyuton); ideal-plastik jism (Sen-Venan) (1-jadval).

Murakkab reologik modellar ularning parallel va ketma-ket birikmalaridan tashkil topadi.

Guk, Nyuton va Sen-Venanning ideal jism modeli

Model	Model ko‘rinishi	Oqim grafigi	Tenglama
Guk			$\tau = \gamma G$ $\sigma = \varepsilon E$
Nyuton			$\tau = \mu \cdot \dot{\gamma}$ $\sigma = \mu \cdot \dot{\varepsilon}$
Sen-Venan			$\tau < \tau_l$ bo‘lganida deformatsiya yo‘q; $\tau \geq \tau_0$ bo‘lganida oqim.

Yuklanishda o‘zini tutishi materiallar xossalarining elastiklik, qovushqoqlik va plastiklik kabi eng oddiy elementlarini ochib beradigan Guk, Nyuton va Sen-Venan ideal jismlarining modellari ko‘rib chiqilgan.

Mavjud reologik modellar murakkab kompleksga ega bo‘lgan va ko‘rsatilgan eng oddiy modellarning birikmasidan iborat bo‘lgan real jismlarning xususiyatlarini yetarlicha aniq tasvirlamaydi.


Muammolarning hozirgi xolati qo‘yilgan masalalarni yechish uchun samaradorligi yuqori bo‘lgan texnologik jarayonlarni va texnik jihatidan takomillashtirilgan uskunalarni yaratish bo‘yicha yangi tadqiqotlarni talab qiladi.

Dissertatsiyaning "**Ko‘n yarim mahsulotining takomillashtirilgan reologik modelini ishlab chiqish**" deb nomlangan ikkinchi bobida I.N.Xusanovning tezlashtirilgan deformatsiyali kapillyar-g‘ovak materialning m ℓ inert qarshiligining yangi reologik koeffitsiyentini aniqlash quyidagi formula bilan ifodalangan usuli taklif etilgan:


$$m_{li} = \frac{\tau_{0i} \cdot h_{0i}^2}{u_{0i}^2}. \quad (1)$$

Tezlashtirilgan deformatsiya paytida inert qarshilikka materialning reologik parametrlari 1-rasmda ko‘rsatilgan qurilma yordamida aniqlanadi. Konus identorining botish chuqurligi bo‘yicha siljishning chegaraviy kuchlanishi va tezlik gardiyentini grafik shaklida aniqlash 2-rasmda ko‘rsatilgan.

Kapillyar gözenekli materialning reologik parametrini aniqlash uchun stand ko‘rsatilgan 1– rasm.



1–rasm. Materialning deformatsiya inertsiasini aniqlash uchun stand
1-elektromotor; 2-variator; 3-vintli juftlik; 4-o'q; 5-qavs; 6-novda; 7, 25-yong'oqlar; 8-murvatlar; 9, 11, 12, 15-simlar; 10-osiloskop; 13-sensor 14-uzuk; 16-to'shak; 17-vint; 18-sensor; 19-yadro; 20 stol; 21, 24–plitalar; 22-material; 23-indentor; 26-qo'llab-quvvatlash; 27-yuk; 28-qo'l; 29-tishli juftlik



2–rasm. Kapillyar-g'ovakli material siljishning chegaraviy kuchlanishini aniqlash grafigi

Materialning deformatsiya inersiyasi ko'effitsiyentini aniqlash natijalari terining reologik modelini aniqlashtirishga imkon beradi.

Terining takomillashtirilgan reologik modelini tuzish uchun parallel ulangan Guk modeli, Nyuton va deformatsiya inert jismning (I.N. Xusanova) modelidan iborat bo'lgan reologik modelga Sen-Venan modeli va parallel Nyuton modelidan tashkil topgan Shvedov – Bingham modelini qo'shamiz:


$$\tau = G\gamma_I + \mu_1 \dot{\gamma}_I + m_1 \ddot{\gamma}_I. \quad (2)$$

$$\tau = \tau_0 + \mu_2 \dot{\gamma}_{II}. \quad (3)$$

Terining takomillashtirilgan reologik modeli sxemasi 3-rasmda keltirilgan

Birinchi va ikkinchi reologik modellarni ketma-ket ulanishi bilan kuchlanish va deformatsiyaning umumiy tenglamasi tuzilgan.

$$\begin{cases} \tau = \tau_I \pm \tau_{II} \\ \gamma = \gamma_I + \gamma_{II}. \end{cases} \quad (4)$$



3–rasm. Terining takomillashtirilgan reologik modeli

Kuchlanish va deformatsiyaning umumiy tenglamasini yechish orqali terining takomillashtirilgan quyidagi modelini olamiz:

$$\ddot{\tau} + \left(\frac{\mu_1 + \mu_2}{m_l} \right) \dot{\tau} + \frac{G}{m_l} (\tau - \tau_0) = \frac{\mu_2 G}{m_l} \dot{\gamma} + \frac{\mu_1 \mu_2}{m_l} \ddot{\gamma} + \mu_2 \dddot{\gamma}. \quad (5)$$

Kapillyar-tolali materialning deformatsiya inert siyasi koeffitsiyenti parametrini aniqlash usuli ishlab chiqilgan (1). Terining takomillashtirilgan modelining reologik tenglamasi tuzilgan (5).

Terining yanada rivojlangan reologik modeli. Bu Xusanov modeli va Nyuton modeli bilan ketma-ket bog'langan Kelvin modeli.

$$\tau_1 = G_1 \gamma_1 + \mu_1 \dot{\gamma}_1, \quad \tau_2 = G_2 \gamma_2 + \mu_2 \dot{\gamma}_2, \quad \tau_3 = m_l \ddot{\gamma}_3 + \mu_3 \dot{\gamma}_3.$$

Transformatsiya va qo'shishdan so'ng, biz umumiy reologik tenglamani oldik. Namlik bilan to'yingan tolali yarim tayyor mahsulotning umumiy reologik:



$$\left(\frac{\mu_1 + \mu_2}{\mu_1 \mu_2} \right) \dot{\tau} + \frac{G}{\mu_1 \mu_2} (\tau - \tau_0) = \frac{G}{m_l} \dot{\gamma} + \frac{\mu_1}{m_l} \ddot{\gamma} + \ddot{\gamma}. \quad (6)$$

Agar shart bajarilsa, $\frac{\mu_1}{G_1} = k_1 \frac{\mu_2}{G_2} = k_2 \frac{m_l}{\mu_3}$ tenglamasi quyidagi shaklni oladi:

$$\frac{1}{\mu_2} \ddot{\tau} + \left(\frac{\mu_1 + \mu_2}{m_l \mu_2} \right) \dot{\tau} + \frac{G}{m_l \mu_2} (\tau - \tau_0) = \frac{G}{m_l} \dot{\gamma} + \frac{\mu_1}{m_l} \ddot{\gamma} + \ddot{\gamma}. \quad (7)$$

Agar shart bajarilsa, namlik bilan to'yingan tolali yarim tayyor mahsulotning umumiy reologik tenglamasi quyidagi shaklni oladi:

$$\left(\frac{1}{G_1} + \frac{1}{G_2} \right) \dot{\tau} + \frac{\tau}{\mu_3} = \dot{\gamma} + \left(1 + \frac{1}{k_1} + \frac{1}{k_2} \right) \frac{\mu_1}{G_1} \ddot{\gamma}. \quad (8)$$



4-rasm. Terining ilg‘or reologik modeli

Quyida namlik bilan to‘yingan modellashtirilgan materialning reologiyasini aks ettiruvchi parametrlarning misollari keltirilgan (kiyim terisini olish uchun mo‘ljallangan tolali yarim tayyor mahsulot misolida).


$$G_1 = 13,1 \text{ MPa}; G_2 = 11,7 \text{ MPa}; \mu_1 = 0,65 \text{ MPa} \cdot \text{s}; \mu_2 = 20,8 \text{ MPa} \cdot \text{s}; \\ \mu_3 = 0,88 \text{ MPa} \cdot \text{s}; m_1 = 2,77 \text{ Па} \cdot \text{с}^2; \dot{\gamma} = 20 \text{ s}^{-2}$$

4, a-rasmda charmning takomillashtirilgan reologik modeli ko‘rsatilgan. 4, b-chizma shuni ko‘rsatadiki, tolali yarim tayyor charm mahsulotga stress ta‘sir gilich momenti bir zumda noldan emas, balki egri chiziq bo‘ylab oshishini ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko‘n yarim mahsulotidan suyuqlikni siqib chiqaruvchi siqish mashinalarining nazariy tadqiqotlari”** nomli uchinchi bobida ko‘n yarim mahsulotining g‘ovak metall-keramika vall bilan o‘zaro kontakt zonasida cho‘zilishi, shuningdek teridan suyuqlikni g‘ovak vallga va vallning tolali qoplamasiga filtratsiya jarayoni ko‘rib chiqilgan. Ko‘n yarim mahsulotini tayanch plitali vallar bilan ilib olish shartlari tahlili qilingan. Ko‘n yarim mahsuloti yuza qatlamanining yaxlitligini hisobga olgan holda g‘ovakli metall keramikali siqish valining parametrlarini tanlash uchun ularning kontakt zonasi ko‘rib chiqilgan (5-rasm).

Yuza qatlamanining oxirgi nisbiy cho‘zilishi $R, r, h; \alpha; \theta; \beta; \beta_1; n;$ φ parametrlarga bog‘liq holda quyidagicha bo‘ladi:

$$\lambda = \frac{\left(\arctg \frac{a}{R-h} - \varphi \right) \cdot r \cdot \left(\frac{\pi}{2} + \theta \right) + r \beta_1 \left(\arcsin \frac{r}{R-r} \right)}{\arcsin \frac{r}{R-r} (R-h) \operatorname{tg} \alpha}. \quad (9)$$



5–rasm. Ko‘n yarim mahsulotini g‘adir-budir g‘ovakli metall-keramika siqish valli bilan kontakt sxemasi

Undan so‘ng ko‘n yarim mahsulotining siquvchi vallning g‘ovakli o‘tkazuvchan ishchi qismi bilan kontakt zonasidagi suyuqlikni filtratsiyasi ko‘rib chiqilgan (6–rasm).

Ko‘n yarim mahsulotining maydon birligidan oqib chiqayotgan suyuqlik miqdori quyidagiga teng:

$$g_1 = IV_1 = K_1 \frac{P_A - P_B}{\frac{\Delta h_0}{\Pi_0}} = \frac{K_1 \Pi_0}{\Delta h_0} (P_A - P_B). \quad (10)$$

Maydon birligidan g‘ovakli vallga oqib tushayotgan suyuqlik miqdori quyidagiga teng:

$$g_2 = IV_2 = \frac{K_2 \Pi_2}{\Delta h_1} (P_B - P_C). \quad (11)$$


Undan so‘ng, ko‘n yarim mahsulotidan g‘ovakli vallga oqib chiqayotgan suyuqlik miqdorining uning asosiy parametrlariga bog‘liqligi aniqlangan:

$$\begin{aligned} Q_1 &= \int_0^\alpha B g_1 \alpha_\beta = \int_0^\alpha B \frac{K_1 \Pi_0^2 K_2 \Pi_2^2 P_K(\beta)}{(K_1 \Pi_0^2 + K_2 \Pi_2^2) R (\cos \beta - \cos \alpha)} d(\beta) = \int_0^\alpha B \frac{\frac{\gamma}{\mu} K_f(\beta) \Pi_0^2 K_2 \Pi_2^2 P_K(\beta)}{\left[\frac{\gamma}{\mu} K_f(r) \Pi_0 + K_2 \Pi_2^2 \right] R (\cos \beta - \cos \alpha)} d(\beta) = \\ &= \frac{B \gamma \cdot K_{f2} \Pi_0^2 \Pi_2^2}{R} \int_0^\alpha \frac{P_K(\beta) K_f(\beta)}{\left[\frac{\gamma}{\mu} K_f(\beta) \Pi_0 + K_2 \Pi_2^2 \mu \right] \cdot (\cos \beta - \cos \alpha)} d(\beta). \end{aligned} \quad (12)$$


Ko‘n yarim mahsulotidan siquvchi valning qoplamasiga ichiga o‘tayotgan suyuqlik miqdori (6–rasm) quyidagiga teng bo‘ladi:

$$Q_2 = \frac{\mu B \gamma^2 \Pi_0^2}{\mu^2} \int_0^\alpha B \frac{P_k(\beta) \Pi_3^2(\beta) K_{f3}(\beta)}{(\gamma K_f(\beta) \Pi_0 + \gamma K_{f3}(\beta) \Pi_2^2) (\cos \beta - \cos \alpha) \rho(\beta)} d(\beta). \quad (13)$$

Koʻn yarim mahsulotidan gʻovakli siquvchi vallga oqib chiqayotgan (6–rasm) va koʻn yarim mahsulotidan siquvchi vall qoplamasi ichiga oʻtuvchi (7–rasm) suyuqlik miqdorining siqish jarayonidagi ularning asosiy parametrlariga bogʻliqligi aniqlangan.




6–rasm. Koʻn yarim mahsuloti bilan gʻovakli metall-keramika valining kontakt zonasida suyuqlik filtratsiyasining sxemasi




7–rasm. Koʻn yarim mahsuloti bilan kapillyar-tolali material bilan qoplangan metalli valining kontakt zonasida suyuqlik filtratsiyasining sxemasi

Undan soʻng, siqish zonasida koʻn yarim mahsuloti uzatma vallar bilan ilib olish shartlari tadqiq qilingan. Shuni taʼkidlash kerakki, ishqalash kuchi koʻn yarim mahsulotini uzatuvchi siqish vallari orasiga tortib olishga intiladi, normal bosim kuchi esa bunga qarshilik qiladi.

8-rasmda teri siqish zonasiga vertikal uzatiladi, plitaning ogʻirlik kuchi G_n va koʻn yarim mahsulotining oʻz ogʻirligi G_k ilib olishga qarshilik qiladi. Tayanch plitali koʻn yarim mahsulotining boshlangʻich ilib olish zonasi 8, a -rasmda keltirilgan. Maʼlumki, $N_y = N \sin \alpha$, $T_y = f_3 N$.



a)



b)

8–rasm. Koʻn yarim mahsulotini aylanadigan uzatuvchi vallar orasiga tayanch plitadan ilib olish zonasini sxemasi: a – boshlangʻich zona; b – oʻtuvchi zona

8-rasmdan ilib olishdagi bu kuchlarning muvozanati quyidagi koʻrinishga ega boʻlishi koʻrinib turibdi:

$$2N_y + G_n + G_k = 2T_y + Q. \quad (14)$$

Ko'rib chiqilayotgan boshlang'ich zonada ilib olish shartlari quyidagi ko'rinishga (8, a–rasm) ega bo'ladi:

$$f_3 \geq \frac{G_n + G_k - Q}{2N \cos \alpha} + tg(\alpha). \quad (15)$$

Undan so'ng, ko'n yarim mahsulotini tayanch plitali ilib olish zonasidagi ilib olish jarayoni ko'rib chiqiladi (8, b–rasm).

Ko'rib chiqilayotgan o'tish zonasida ilib olish sharti quyidagiga teng bo'ladi:

$$f_3 \geq \frac{G_n + G_k - Q}{2N \cos(\beta + \gamma)} + tg(\beta + \gamma). \quad (16)$$


Shundan keyin, ko'n yarim mahsulotini barqaror siqish jarayonidagi ilib olish sharti ko'rib chiqilgan (8, v–rasm).

Barqaror siqish bosqichidagi barqaror harakat jarayonining shartlari quyidagi formula bo'yicha aniqlangan:

$$f_3 \geq \frac{G_n + G_k - Q}{2N \cos \alpha_2} - tg \alpha_2. \quad (17)$$

Keyingi bosqichda ko'n yarim mahsulotini ilib olishdan chiqish zonasi (8, g–rasm) ko'rib chiqilgan va ilib olish shartlari aniqlangan:

$$f_3 \geq \frac{G_n + G_k - Q}{2N \cos \alpha_2} - tg \alpha_2. \quad (18)$$




8–rasm. Ko'n yarim mahsulotini tayanch plita ilib olganidan keyingi zonasining sxemasi v – barqaror zona; g – chiqish zonasi

Ko'n yarim mahsulotini vertikal tayanch plitasining bukilgan joyiga vall juftligi bilan ilib olish shartlari olingan.

Dissertaya ishining «Ko'n yarim mahsulotidan suyuqlikni valli siqish jarayoni va presslash orqali suyuqlikni siqib chiqarishda turli faktorlarning ta'sirini eksperimental tadqiqotlari» nomli to'rtinchi bobida ko'n yarim mahsulotidan suyuqlikni siqish jarayoniga, shuningdek, presslash orqali suyuqlikni siqib chiqarishga siquvchi vall juftligi kombinatsiyasining ta'siri ko'rib chiqilgan.

Eksperimentlar valli siquv mashinasi stendida siquvchi vall juftligining turli xil kombinatsiyalarida o'tkazilgan (9,10–rasm).



9–rasm. Valli mashina eksperimental stendining sxemasi: 1-yong'oqlar; 2-buloqlar; 3-teri 4, 8-siqish vallari; 5, 6-viteslar; 7, 10-ustunlar; 11-elektr motor; 12-Vites qutisi; 13-zanjirlar; 14, 15-tayanchlar



10–rasm. Valli mashina eksperimental stendi

Ekspperimental stend uchun g'ovakli vallning parametrlari quyidagicha: siquvchi vallar diametrlari – 0,1 m, ularning uzunligi – 0,1 yoki 0,25 m, vallar tezligi – 0,17, 0,255, 0,34m/s dan. Metall-keramika val diametri– 0,1 m, ishchi qismi uzunligi – 0,1 m, devorining qalinligi – 0,005 m (11–rasm).



11–rasm. G'ovakli metall-keramikali val

Metalli val rezinali qoplamaga ega (12–rasm): rezina qalinligi – 0,01 m; metall qismi diametri – 0,1m; uzunligi – 0,11 m.

BM sukvoli (movutli) metall val (13–rasm) metall qismining diamteri – 0,1 m, uzunligi – 0,11m, qoplamasi –BM sukvo qalinligi – 0,01m.



12–rasm. Rezia malali val



13–rasm. BM sukvo (movut) qoplamali val

Val juftligi, siqish bosimi, o'tish tezligining turli kombinatsiyalarida ko'n yarim mahsulotidan siqib chiqarilgan suyuqlikning o'rtacha miqdori 14-rasmda keltirilgan.

O'nta ko'n yarim mahsulotidan katta pichoqda umurtqa chizig'iga ko'ndalang ravishda $0,10 \times 0,35$ o'lchamli tilim kesib olingan va raqamlangan, shundan so'ng namunalar 5 tadan guruhlarga komplektlangan.

Ishlab chiqilgan usul bo'yicha ko'n yarim mahsulotlarining namunalari 5 donali guruh bo'yicha siqish tezliklari $0,17, 0,25, 0,34$ m/s., bosimlari $32, 64, 96$ kN/m va val juftliklarining quyidagi kombinatsiyalarida vallar orasidan o'tkazilgan: ikkala siquv vallari BM suknoli; yuqorigi val BM suknoli, pastki val esa metall-keramikadan; ikkala siquvchi vallar metal-keramikadan.

Ko'n yarim mahsulotidan $V=0,17$ m/s o'tish tezligida va siqish bosimi $P=32, 64, 96$ kN/m da suyuqlikni siqib olish uchun suyuqlikni chiqarishning bog'liqlik tenglamalari olingan.

MK(100)+MK(100) val juftliklarining kombinatsiyalari uchun chiqarilgan suyuqlikning tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$W_1 = -0,000P^2 + 0,4216P + 15,49; \quad (19)$$

M(100)+MK(100) siquvchi vallarining kombinatsiyalari uchun chiqarilgan suyuqlikning tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$W_1 = -0,000P^2 + 0,4216P + 15,49; \quad (20)$$

R(100)+MK(100) siquvchi vallarining kombinatsiyalari uchun chiqarilgan suyuqlikning tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$W_3 = 0,00018P^2 + 0,1738P + 13,8111 \quad (21)$$

va nihoyat, M (100) +M (100) val juftliklarining kombinatsiyalari uchun chiqarilgan suyuqlikning tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$W_4 = 0,00017P^2 + 0,1106P + 17,6057. \quad (22)$$

Ko'n yarim mahsulotidan suyuqlikni siqib chiqarish uchun shunga o'hshash natijalar o'tkazish tezligi $0,255$ m/s bo'lganida olingan:

$$MK(100)+MK(100) \quad W_1 = 0,0044P^2 + 0,2158P + 23,4211, \quad (23)$$

$$M(100)+MK(100) \quad W_2 = -0,00006P^2 + 0,1544P + 16,1435, \quad (24)$$

$$P(100)+MK(100) \quad W_3 = 0,00055 P^2 + 0,5235 P + 18,6616 , \quad (25)$$

$$M(100)+M(100) \quad W_4 = 0,00014P^2 + 0,861P + 18,1414. \quad (26)$$

$0,34$ m/s siqish tezligi uchun siqish bosimi va siquvchi vallar juftligining turiga bog'liq holda ko'n yarim mahsulotidan suyuqlikni siqib chiqarish uchun tenglamalar olingan:


$$MK(100)+MK(100): \quad W_1 = 0,00016P^2 + 0,0643P + 16,4882, \quad (27)$$

$$M(100)+MK(100): \quad W_2 = -0,000076P^2 + 0,0290P + 17,7902, \quad (28)$$

$$P(100)+MK(100): \quad W_3 = 0,00083P^2 + 0,0253P + 15,8364 \quad (29)$$

$$M(100)+M(100): \quad W_4 = 0,00098P^2 + 0,0033P + 16,6855. \quad (30)$$


Yuqorigi siquvchi val BM suknosi bilan, pastkisi esa g'ovak metall-keramika bilan qoplangan vallar kombinatsiyasida suyuqlikning eng katta miqdori chiqarib yuboradi va $R=96$ kN/m i $V=0,17$ m/s bo'lganida $\Delta W=34,16$ % tashkil etadi.




14–rasm. Ko‘n yarim mahsulotidan chiqarilgan suyuqlik miqdorining vallar juftligi kombinatsiyasi, o‘tishning turli tezliklaridagi bosimning solishtirma kuchiga bog‘liqligi:
1, 2, 3– yuqoriga siquv vali BM sukno bilan qoplangan, pastki – o‘tkazuvchan metall
-keramikadan; 4, 5, 6 – yuqori va pastki siquv vallari BM sukno bilan qoplangan;
1, 4 – tezlik 0,17 m/s, 2,5– 0,25 m/s, 3,6–0,34m/s, siqish bosimlari 32, 64, 96 kN/m

Keyingi qadamda ko‘n yarim mahsulotning qatlamlari orasidagi suyuqlikni chiqarib yuboruvchi materialning presslash orqali siqish jarayoniga ta’siri eksperimental tadqiq qilingan (15, *a*, *b*–rasm). 15, *a*–rasmda ko‘n yarim mahsulotidan suyuqlikni presslash yo‘li bilan chiqarib yuborish uchun stend, 15, *b* – rasmda ko‘n yarim mahsulot qatlamlari orasidagi suyuqlikni chiqarib yuboruvchi material bilan presslash ko‘rsatilgan.

Presslash yordamida siqishda ko‘n yarim mahsuloti qavatlar orasidagi BM tipidagi sukno siqib chiqarilayotgan suyuqlik miqdorini o‘rtacha 15% ga oshiradi, ular orasidagi yopishib qolishlikni yo‘qotadi va ularni ajratish harakatini sezilarli darajada kamaytiradi (16–rasm).



15–rasm. Xo‘l ko‘n yarim mahsulotidan suyuqlikni presslash orqali siqib chiqarish uchun eksperimental stend: (a) – qatlamlar orasida BM suknosiz siqish; (b) –BM sukno bilan siqish; 1-plita; 2-stoiklar; 3, 4-tayanchlar; 5, 6-plitalar; 7-buloqlar; 8-charm yarim tayyor mahsulot; 9-mato BM; 10 Jak



16–rasm. 0,11 kN/sm² tezlikda ΔW chiqarib yuborilgan suyuqlikning miqdorini vaqtga bog‘liq ravishda o‘zgarishi

Dissertatsiyaning «Ko‘n yarim mahsulotini vertikal uzatish orqali namlikni valli siqishga turli omillarning ta‘sirini eksperimental tadqiqi qilish» deb nomlangan beshinchi bobida ko‘n yarim mahsulotidan suyuqlikni vallar yordamida siqish jarayoniga turli omillarning ta‘siri ko‘rib chiqilgan. K. Kanoning rejalashtirish matritsasidan foydalanib tajribalarni o‘tkazish va natijalarga qayta ishlov berishning D-optimal metodi qo‘llanilgan, bu omillarni ushbu tadqiqot uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan uchta darajada o‘zgartirishni ko‘zda tutadi: pastki (–), nol (0) va yuqorigi (+). Suyuqlikni W chiqarib yuborish jarayonini quyidagi ikkita omillarni hisobga olgan holda o‘rganilgan: x_1 – siqish intensivligi R, kN/m, x_2 – vallar tezligi V, m/s. Siqish bosimi P=32, 64, 96 kN/m. deb qabul qilingan. Ko‘n yarim mahsulotiga bosim prujinaning siqilish kuchi orqali vallar tomonidan yuzaga keltiriladi. Ko‘n yarim mahsulotlarini o‘tish tezligi V=0,17, 0,255, 0,34 m/s ga, metalli vallar diametri BMsuknoli qoplama bilan -0,2 va 0,3 m ga teng.

ISO 2588-85 Xalqaro standartga muvofiq, o‘rta vaznli buqa terisidan zarur bo‘lgan miqdordagi ko‘n yarim mahsuloti $n = 0,2\sqrt{x}$ formula bo‘yicha o‘rnatilgan, bunda x – partiyadagi ko‘n yarim mahsuloti soni, n – eksperiment uchun ko‘n yarim mahsuloti soni.

O‘nta ko‘n yarim mahsuloti namunalaridan katta pichoqda umurtqa chizig‘iga ko‘ndalang ravishda 0,50×0,25 o‘lchamli tilim kesib olingan va namunalar 5 tadan guruhlangan.

Eksperimentning ikkita omili uchun ishchi matritsa K.Kano rejasi matritsasi bo‘yicha tuzilgan.

Eksperiment tayanch plitadagi vertika uzatmali stendda (17–rasm) LASH va BM namlikni chiqarib yuboruvchi materialli bir va ko‘p qatlamli ko‘n yarim mahsuloti paktlarida o‘tkazilgan.



17-rasm. Nam yarim tayyor charm mahsulotlarini siqish uchun eksperimental valli stendi (Uz FA MISMI)

Omillarni kodlash (2-jad) quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$x_i = \frac{c_i - c_{i0}}{t_0} \quad (31)$$

Maqsad funksiyalari polinom bilan approksimatsiyalangan

$$y = b_0 + \sum_{i=1}^k b_i x_i + \sum_{i,j=1}^k b_{ij} x_i x_j + \sum_{i=1}^k b_{ii} x_i^2 \quad (32)$$

2-jadval

Eksperiment omillarini o‘zgartirishning darajalari va intervallari

Ko‘rsatkich	Omillarning kodlangan qiymatlari	Omillarning qiymatlari	
		x_1 , kN/m	x_2 , m/s
Yuqorigi daraja	+	96	0,340
Nol daraja	0	64	0,255
Pastki daraja	-	32	0,170
O‘zgartirish intervali		32	0,085

Dispersiyaning bir xilligi $\alpha=0,95$ ishonch ehtimolligida Koxren kriteriyasi yordamida o‘tkazilgan.




